

ALISHER NAVOIY – O'ZBEK ADABIY TILINING ASOSCHISI

Norboyev Sardor Qavmiddinovich

BuxDPI ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Sharipova Guli Nusrat qizi

BuxDPI 1-bosqich talabasi

Tel:+998931586633

Elektron pochta: sharipovag142@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan ,o'zbek xalqining buyuk adibi , so'z mulkining sultoni-Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tili ravnaqiga qo'shgan hissasi haqida fikrlar aytilgan.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy ,tajnis, affiks, Devoni foniy , Lutfiy.

Annotation: This article mainly discusses the contribution of Alisher Navoi, the great writer of the Uzbek people, the sultan of words, to the development of the Uzbek literary language.

Key words: Alisher Navoi, tajnis, affix, Devoni fany, Lutfiy.

Аннотация: В данной статье в основном рассматривается вклад Алишера Навои, великого писателя узбекского народа, султана слова, в развитие узбекского литературного языка.

Ключевые слова: Алишер Навои, тайнис, аффикс, Девони фаны, Лютфий.

O'zbek adabiy tilining rivojida XV asrning 2-yarmi juda muhim davr hisoblanadi. Bu davr Alisher Navoiy o'zining muborak ijodi bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tarish bilan birga ,o'zbek tilining taraqqiyotiga ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Badiiy ijodning ikki tilda yaratilishi ham shu davrning muhim xususiyatlaridan biri edi.

“Alisher Navoiy boshchiligidagi adabiy harakat turkiy til mavqeyi uchun qattiq kurash olib bordi va bu borada olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritgan. A.Navoiy faqat o'zbek emas balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo'lgan buyuk shaxdir. U qoldirgan merosning soni va hajmigagina emas , balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir”.

Navoiy o'z asarlarida, albatta «grammatika» yoki «fonetika» so'zini qo'llagan emas. Lekin tilning grammatik va fonetik qonunyatlarini yaxshi bilgan, ularni bir-birlaridan yaxshi farqlagan va o'ziga xos arabcha-forscha va turkcha-o'zbekcha atamalar bilan nomlangan: amr, harf, harakat, hamza, voze (voz-yasovchi yoki so'z yasovchi); tajnis va ihom – ko'p manoli so'z; alam-ism, ot; atmutakallim-so'zlovchi; lafz, kalom, alfoz kabilar haqida o'z davriga nisbatan juda muhim fikr va mulohazalar bayon qilgan. Jumladan, Navoiy turkiy (o'zbek) tilining grammatik xususiyatlari

haqida yetarli darajada fikr bildirgan. U, xususan, soʻz yasash yoʻllari haqida maxsus toʻxtaydi. Oʻzbek tilida fellardagi birgalik va ortirma darajalarini yasovchi –sh/-ish, -t, qoʻshimchalari orqali chopishmoq, topishmoq, koʻchishmoq, oʻpishmoq, yugurt, qildurt, yashurt, chiqart kabi soʻzlar yasalganligini, sifatlarda belgining ortiq-kamligini esa p, m, vositasi orqali op+oq qop+qora, qip+qizil, sap+sariq, yum+yumaloq, yap+yassi, op+ochuq, yam+yashil, boʻm+boʻsh tarzida ifodalanishini aytadi.

Shuningdek, ravishdoshning – gʻach/-gach, -qach/-kach affiksi orqali tergach, borgʻach, yorgʻoch, topqoch, sotqoch kabi fel formalarining yasalanishini; harakatni bajarishga intilish, tayyorlanish kabi manolarni ifodalashda esa – gu/-gʻu affiksi bilan yasalgan sifatdosh formasiga – dek ravishdosh yasovchi qoʻshimchaning qoʻshilishi orqali borgʻudek, yorgʻudek, qaygʻudek, urgudek, surgudek feʼllarning hosil qilinishini misollar bilan koʻrsatadi.

Navoiy asos solgan adabiy tilning tovush imkoniyatlarining kengligi ham toʻla isbot qiladi. Chunki Navoiy asarlarining tili oʻz davrida mavjud boʻlgan turkiy sheva, lahja va dialektlarning deyarli hammasining vokalizmini qariyb toʻliq ravishda aks ettirgan va 9 sostavli unli tovushlar sistemasi va singarmonizm qonuniyati eski oʻzbek adabiy tilining asosiy bazalari boʻlgan qipchoq lahjalarining ham, oʻgʻuz lahjalarining ham, oʻrta oʻzbek (qarluq-chigil-uygʻur) lahjalarining ham tovush sistemalarini toʻliq aks ettirishga imkon beradi.

Alisher Navoiy butun hayoti davomida adabiy asarlarni siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansabga ega shaxs boʻla turib, u mamlakat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy takomillashishiga katta hissa qoʻshgan; ilm, fan, sanʼat rivojiga homiylik qilgan tinchlik va totuvlik doimo hukmron surishga doim harakat qilgan.

“Navoiy 12 yoshlarida oʻz sheʼrlari bilan zamonasining eng mashhur shoirlarini hayratga soldi. Masalan, toʻqson yoshli Mavlono Lutfiy uning:

Orazin yopgʻ och, koʻzumdin sochilur har lahza yosh,
Boʻylakim paydo boʻ hur yulduz, nihon boʻlgʻ och quyosh, -

satrlari bilan boshlanadigan bir sheʼrini tinglab, qoyil qolgandi”.

Sheʼr chindan ham goʻzal edi. Undagi xayol mislsiz edi. «Yor yuzini yopgach, koʻzimdan har lahza yosh sochiladi. Bu goʻyo quyosh botganida yulduzlar paydo boʻlgani kabidi, - deb yozgan edi yoshgina shoir.

Navoiy forsiy tilida yozilgan oʻz sheʼrlarini “Devoni Foniyy” nomi ostida jamlagan. Navoiy oʻz sheʼriyati orqali oʻzbek adabiyotini yangi darajaga olib chiqdi. Navoiyning nazmi mavzusining

kengligi hamda janrining xilma-xilligi bo'yicha undan oldingi o'zbek adabiyotini ortda qoldiradi. U nazmda dostonlardagi kabi dunyoviy va diniy, so'filylikning dolzarb masalalarini ifoda qilgan.

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir...

“Agar bu ulug' zotni avliyo desak, avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak shoirlarning sultonidir”.

Navoiy- adabiyotshunos sifatida o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga xizmat qiladigan ko'plab ilmiy asarlar muallifi. Xususan, uning o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixi uchun noyob manba sifatida katta ahamiyatga ega “Majolis un-nafois” asarida 450 ta shoir, yozuvchi, ijodkor haqidagi ma'lumotlar jamlangan.

“Hazrat Alisher Navoiy: “Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz”. A.Navoiy- yirik va hassos tilshunos olim. Uning 1498-yilda yaratilgan “Muhokamat ul-lug'atayn” asari tilshunosimizning xazinasidagi bebaho gavhardir. Undan alloma adib, o'z tili bilan aytganda “nazm gulistonining andalibi nag'asaroyi” sifatida eski o'zbek tilini, uning badiiy uslubini ilmiy –nazariy jihatidan har tomonlama asosladi, turkiy til imkoniyatlarini amaliy jihatdan isbotlab ko'rsata olgan.”

Alisher Navoiy tilning ijtimoiy hodisa ekanligiga alohida urg'u qaratadi. O'zbek tilidagi ifoda imkoniyatlarining boyligini namoyish qiladi. Har bir so'zdagi ma'no nozikliklarini juda ishonchli tarzda, mantiqiy dalillar bilan ko'rsatib bergan. U arab, fors, hindiy tillari qatorida o'zbek tilining ham eng qadimiy tillaridan bir ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Adib ona tilidagi so'zlarning barcha imkoniyatlaridan imkoni boricha to'liqroq foydalanishga harakat qildi. Zamondoshlari tilidagi faol va nafaol so'zlarni o'z asarlariga kiritib, ularning bizning zamonamizgacha yetib kelishini ta'minladi.

O'zi ko'plab yangi so'zlarni yaratdi, oldindan qo'llanib kelayotgan so'zlarning yangicha ma'no tovlanishlarini kashf qildi, tilning ifoda imkoniyatlarini amaliy jihatdan ham juda kengaytirdi.

Olimning sinonimlar, omonimlar, atamashunoslik borasidagi fikrlari ham qadrlidir. Asarda it, tush, yoq, bor, sog'in, tuz singari so'zlarning bir necha ma'nolarni ifodalay olish imkonini ko'rsatuvchi namisollar keltirilgan. Jumladan, ko'k so'zining osmon, kuy, kuylamoq, qadoq, sabza o't-o'lan ma'nolarida qo'llanilishi ko'rsatiladi. Ayrim so'zlarning to'rt, besh, olti ma'noda qo'llanishiga misollar keltiradi.

Alisher Navoiy hassos tilshunos sifatida forsiy til amaliyotida turkiy tildan o'tgan so'zlarga ham e'tibor qaratadi. Masalan, tubichog, arg'umoq, yaka, yobu, totu singari ot turlarini, dastor, qalpoq, to

ppi, shirdog', yog'lig' singari bosh kiyimlarini, qo 'rchi, suvchi, qushchi, qo 'rugchi, kiyikchi, kemachi, qo 'ychi singari kasb va hunarlarning nomlarini forsiylar ham turkiycha so'zlar bilan yuritishi ko'rsatiladi.

Garchi asar ona tilining imkoniyatlari va qonuniyatlari borasida bahs yuritsa-da, unda adabiyotshunoslikka oid ko'plab fikr va mulohazalarni ham ko'rish mumkin. Xususan, so'z ma'nolari orasidagi tafovutlar, qofiya, vazn, she'r tuzilishiga oid qaydlar shular jumlasiga kiradi. Unda Xusrav Dehlaviy Abdurahmon Jomiy, Sa'diy, Hofiz Sheroziy singari ko'plab buyuk so'z ustalarining ijodlariga oid qaydlar ham mavjud.

Alisher Navoiy fors-tojik, ozarbayjon shoirlari Nizomiy, Hoqoniy,

Farididdin Attor, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz kabilardan she'riyatning ulkan merosini qabul qildi. Ularning an 'analarini davom ettirdi. O'zi fors-tojik tilini kamoli ehtirom, cheksiz hurmat bilan o'rgandi, bu adabiyot namoyandalariga katta muhabbat bilan qaradi. Alisher Navoiy bilan buyuk tojik shoiri Abdurahmon

Jomiy o'rtasidagi shaxsiy do'stlik va adabiy hamkorlik bunga yaqqol dalili sifatida qardoshlik tarixim izda ham so'nmas sahifadir. Navoiy o'zbek adabiyoti va o'zbek tili bilan bir qatorda, tojik tili va adabiyotining rivojiga ham g'amxo'rlik qildi.

Foniy taxallusi(bilan she'r yozib,, o'zining fors-tojik tilini mukammal egallaganligini, tojik tili va adabiyotiga cheksiz hurmatini namoyish etdi. Ulug' zullisonayn shoir o'zining ikki tilda yaratgan asarlari haqida faxrlanib bunday degan edi:

Ma'nii shirinu ranginam ba turki behad ast,

Forsi ham la'lu durhoi simin chun bingari.

Go'iyoy dar rast bozori sugan bikushodaam.

YAk taraf do 'koni qannodiyu yak so' zargari.

Mazmuni: «Turkiy tilda rang-barang shirin ma'noli she'rlarim behad ko'pdir, forsiy she'rlarim ham bebaho la'lu gavharlarga o'xshaydi. Go'yo so'z bozorida do'kon ochganman: bir tomonda qandolat do'koni-yu bir tarafda zargarlik».

“Buyuk shoir, mutafakkir va lingvist olim ana shu muddaolar, sa'y-harakatlar jarayonida o'zbek adabiy tilining muboriz himoyach isi, bayroqdori bo'lib chiqdi.

Bu sohadagi ilg'or dono fikrlari, ajoyib asarlari, amalky faoliyati bilan shon-shuhrat qozongan Navoiy:

Turk nazmida chu tartibmen alam,

Ayledim bu mamlakatni yakqalam -

deb haqli ravishda faxrlandi. Bobur tili bilan aytganda, Navoiy o'zbek tilida

barchadan «ko'p va xo'p» yozib, qalam kuchi bilan qalblardan Joy oldi».

Alisher Navoiyning adabiy tili haqida. O'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy uch til (fors, arab va turk tili) stixiyasi kurashayotgan bir paytda o'z asarlarini o'zbek tilining boy xazinasidan foydalangan holda yozdi. U

Xazoyin ul-maoniy», «Xamsa», «Lison ut-tayr» kabi badiiy adabiyot namunalarini, Mezon ul-avzon» kabi adabiyotshunoslikka oid,

«Majolis un-nafois», «Muhokamat ul-lug'atayn» kabi tilshunoslikka oid asarlarini shu tilda yaratdi.

Bu bilan o'zbek tilining {badiiy, ymiy asarlar yaratish uchun boy imkoniyatlarga ega ekanligini amalda isbotladi. Umuman, fors tilining qaysi janr va uslubida asarlar

yaratilgan bo'lsa, Navoiy ularning hammasida o'zbek tilida asarlar yozdi. U

o'zining amaliy ishlar bilan o'zbek tilining ixcham grammatik qurilishga va boy lug'at fondiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Navoiy asarlari tilida leksik va grammatik normalan ing belgilani shi. Alisher

Navoiy fors-tojik sa'z san'atkorlari bilan ijodiy musobaqalashdi. Bu musobaqada

katta muvaffaqiyatlarga erishib, o'zbek tilining leksik va grammatik boyliklarini

namoyish etdi. A. Navoiy «Mezon ul-avzon» asarida shunday yozadi: «...Ajam

shuarosi va furs fusaqosi har qaysi uslubdakim, so'z arusiga jilva va namoyish

berib erdilar, turk tili bila qalam surdum va har | nechuk qoidakim, ma'ni abkorig'a ziynat va

oroyish ko'rgo'zib erdilar, chig'atoy lafzi bilan raqam urdum». Navoiy o'z asarlarida o'zbek tilining

leksik boyliklaridan sinonimlari va xalq maqol va

matallaridan, frazeologik, idiomatik birikmalaridan, jumla tuzilishidan keng foydalandi. O'z

asarlari o'zbek tilining leksik boyligidan ijodiy foydalanган Navoiy uning fors-tojik tilidan boy

ekanligini alohida ta'kidlaydi. Navoiy o'zbek tilidagi sinonimlardan ustalik bilan foydalandi. O'zbek

tilida turli ma'no nozikliklarini ifodalovchi sinonimik juftlariga ega bo'lgan fe'lardan yuztasini

«Muhokamat ul-lug'atayn»da sanab o'tadi: «Bu yuz lafz durki, g'arib maqosid adosida ta'yin qilib durlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamay durlar».

«Navoiy bu 100 fe'lning har biri o'zbek tilida o'z sinonimlariga ega deydi va

ularning har biridan foydalanadi. Masalan, Navoiy biror-bir suyuqlikni ichish

harakatini ko'rsatuvchi ichmoq fe'lining sipqarmoq, tamshishoq kabi sinonimlarini keltiradi.

Saqiya, tut badakim, bir lahza ezum din baray,

Shart bukim, har nechə, tutsang laba-lab smpqaray.

Saqiy chu ichib, mengə tutar qosh,

Tamshny-tamshny ani qnlay nosh.

Navoiy yig'lamaq so'zining yig'lamsimag, boxsamaq, ingramak, singramak,

siqtamaq, ekirmek, inichkirmək, hay-hay yoshlamaq kabi sinonimlarini samarali qo'llagan".Navoiy o'zbek tilining o'ziga xos leksik xususiyatlarini ko'rsatar ekan, o'z navbatida, u fors tli leksik boylıklaridan ham bahramand bo'ldi.Uo'zbek tilining leksik nomalarini belgilashda arab, fors-tojik tili so'zlaridan ham unumli foydalandi. Ayrim tushunchalarni ifodalashda boshqa tildan so'z olish zarur va shart deb bildi. CHunki arabcha, fors-tojikcha so'zlarni ko'proq ishlatishni o'sha davr adabiy janr va uslubi ham talab qilar edi.

Navoiy faqat leksik nomalarnigina emas, balki grammatik normalarni belgilashda ham samarali ish qildi. O'z asarlarida grammatik shakllarning ixchamligiga va so'z yasash texnikasiga mas'uliyat bilan qaradi. Ixcham grammatik shakllar orqali yangi so'zlar hosil qilishga, yangi ma'no ifodalashga alohida e'tibor berdi.

Navoiy so'zlarning va grammatik shakllarning yasalishi va ishlatilishiga, ularning poetik bo'yoqdorligi hamda nozikliklariga alohida e'tibor bilan qaradi. Masalan, harakatni bajarishga intilish, tayyorlan ish kabi ma'nolarni ifodalash uchun g'u-g'u qo'shimchali sifatdoshga -dek qo'shilishi bilan hosil bo'luvchi shakldan unumli foydalandi: bargudek, bilgudek, aytqudek, urg'udek,sorg 'udek kabi.

Navoiy nasriy asarlarin ing tili va uslobi.Alisher Navoiy o'zbek tilining lug'at boylıklarini xalq azmdagina emas, balki nasrda ham sinab ko'rđi. Uning nazariy asarlari adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, axloq va tarixga doir ilmiy ishlaridan iborat.

“Mir Alisher Navoiyning aksariyat asarlari, xususan, Xamsa»dagi bir necha boblar so'z ta'rifiga bag'ishlangan. Ularni mutolaa qilar ekanmiz, so'zning qudrati, ta'sir kuchi, jilvasiga alohida urg'u berilganligiga guvoh bo'lamiz.Shoir, avvalo, hayot mohiyati hisoblangan to'rt unsur: suv,havo, olov, tuproqning ham, yetti qavat osmondagi yetti sayyoraning ham so'z tufayli vujudga kelganini ta'kidlaydi.”

Insonni hayvonot olamidan farqlovchi asosiy belgi ham so'z ekanligini aytadi:

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

shunday ekan, so'z gavharining sharofati shunchalar yuksakki, uning qarshisida eng qimmatbaho narsalar ham qadrsizlanadi:

So'z guhariga erur oncha sharaf.,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.

Xullas, Alisher Navoiy asarlari bizni dunyoning eng sirli mo'jizasi hisoblangan so'zga ehtiyotkorlik va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga, uni qadrlashga chorlaydi.

“So'z mulkingning sultoni Alisher Navoiy so'zning muloqotdagi o'rnini bilishni inson axloqining asoslaridan hisoblagan, aniq va lo'nda gapirishni fazilat deb bilgan:

Bir deganni ikki demak xush emas,
So'z chu takror topti, dilkash emas.

Tariximizda go'zal nutq, nutq odobi, ona tilining qudrati kabi masalalar hamisha allomalarimiz diqqat markazida bo'ib kelgan”.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://uz.m.wikipedia.org/>
2. <https://arxiv.uz/>
3. <https://znaniya.com/task>
4. I.A.Karimov. Yuksak ma'naiyat yengilmas kuch. Toshkent, 2015
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami.7-jild. -T.:”Fan”, 1991